



“TASDIQLAYMAN”

**Xorazm viloyat statistika
boshqarmasi boshlig‘i**

A. O‘tamuratov

2024 yil “6” may

**Xorazm viloyat statistika boshqarmasi
«Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi» bo‘limining**

NIZOMI

1. Umumiy qoidalar

1. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-114-sonli qaroriga muvofiq, “Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi” bo‘limi (keyingi o‘rinlarda Bo‘lim deb yuritiladi) Xorazm viloyati statistika boshqarmasining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

2. Bo‘lim faoliyati rivojlanishning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy metodologiyaga, xalqaro standartlar va qoidalarga asoslangan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar, fuqarolar va tashkilotlarning rasmiy statistika axborotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi axborot-statistika tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat statistikasi to‘g‘risida”gi Qonuniga, “O‘zbekiston Respublikasining davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizomga hamda Xorazm viloyat statistika boshqarmasining Nizomiga, shuningdek mazkur Nizomga amal qiladi.

4. Bo‘lim o‘z faoliyatini boshqarma boshlig‘ining rahbarligida amalga oshiradi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini tuman, (shahar) statistika bo‘limlari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

II. Bo‘limning asosiy vazifalari va funksiyalari

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘yicha Davlat statistika ishlari yillik dasturiga asosan statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish va taqdim etishni amalga oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

2. Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi axborotlarini shakllantirish masalalari bo‘yicha shahar va tuman statistika bo‘limlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

3. Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi axborotlarini shakllantirish bo'yicha qabul qilingan uslubiy hujjatlarni amaliyotda qo'llanilishini ta'minlash;

4. Tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasiga oid davlat statistika kuzatuvlarini yagona statistika metodologiyasi asosida tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish;

5. Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy qilish ishlarini tashkil etish, bu yo'nalishda shahar va tuman statistika bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

6. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi asosiy ko'rsatkichlarining takomillashtirilgan ma'lumotlar bazasini yuritish.

Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1. Statistika ishlari dasturiga muvofiq, Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha statistik kuzatuvlar o'tkazish, umumlashtirish, tahlil etish, saqlash va statistik ma'lumotlarni taqdim etishni tashkil etadi;

2. Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha shahar va tuman statistika bo'limlari faoliyatini nazorat qilish, muvofiqlashtirish, ular tomonidan taqdim etilgan axborotlarni tahlil qilish ishlarini olib boradi;

3. Tuman (shahar) statistika bo'limlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

4. Korxonalar va tashkilotlarga Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha axborotlarni shakllantirishda uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

5. Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid statistik ma'lumotlarni shakllantirish, saqlash va tarqatishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi;

6. Belgilangan tartibda bo'limga yuklatilgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

III. Bo'limning huquqlari va javobgarligi

Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

1. Yuridik va jismoniy shahslardan hamda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan belgilangan shakllarda va muddatlarda statistik ma'lumotlarni so'rash va olish;

2. Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid hisobotlar shakllarini, tanlama kuzatuv so'rovlarni, ularni to'ldirish bo'yicha tushuntirishlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

3. Bo‘lim vakolatlariga kiradigan masalalarni kengashda muhokama qilish uchun ma‘lumotlar tayyorlash;

4. Bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha ishlar ijrosini nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

Bo‘lim: o‘ziga yuklangan vazifa va funksiyalarning zarur darajada va samarali bajarilishi uchun;

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari va boshqa me‘yoriy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari, farmoyishlari, Statistika agentligi, Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyati topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi, hisobot va ijro intizomini ta‘minlanishi uchun;

2. Bo‘limga kelib tushgan va chiqayotgan materiallarning davlat, tijorat sirlariga rioya qilinishi va saqlanishini ta‘minlash uchun javob beradi.

IV. Bo‘lim faoliyatini tashkil etish

1. Bo‘lim faoliyati Xorazm viloyat statistika boshqarmasining Nizom, Statistika agentligi, buyruqlari va qarorlari, shuningdek Statistika ishlari dasturi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, Statistika agentligining I va II yarim yilligi uchun ish rejalari, Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdolar statistikasi boshqarmasining yillik ish rejasi, Viloyat statistikasi boshqarmasining yillik ish rejasi xodimlarning lavozim vazifalari asosida tashkil etiladi.

2. Bo‘lim xodimlarining lavozim vazifalari viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari va Viloyat statistikasi boshqarmasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

3. Yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish bo‘yicha Bo‘lim faoliyati samaradorligining doimiy monitoringi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturining va Statistika agentligi rahbariyati topshiriqlarini elektron hujjat aylanish tizimida o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qilish, shuningdek Bo‘lim tomonidan bajarilgan rejadagi va rejadan tashqari ishlar to‘g‘risida Boshqarmaning oylik hisobotini tuzish orqali tashkil etiladi.

4. Bo‘limga viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qiladi.

Bo‘lim boshlig‘i:

1. Bo‘limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, mutaxassislarning ishini tashkil qiladi, Bo‘limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

2. Bo‘lim ishining samaradorligini oshirish va uni kadrlar bilan to‘ldirish choralari ko‘radi;

3. Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari bilan birgalikda Bo‘lim faoliyatini takomillashtirish, Statistika ishlari dasturi, Statistika ishlab chiqarish dasturini shakllantirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;

4. Xodimlar tomonidan Bo'limga kelib tushgan va chiqayotgan materiallarning davlat va tijorat sirlariga rioya qilinishini va saqlanishini ta'minlaydi.

Bo'lim bosh mutaxassisi

1. Bo'lim boshlig'i yo'q paytida uning barcha vazifalarini bajaradi.
2. Qabul qilingan hisobotlarni statistik ish rejasiga asosan tekshiradi, umumlashtirilgan statistik xisobot tuzadi.
3. O'ziga biriktirilgan hisobotlarni elektron ko'rinishda qabul qiladi va nazorat qiladi.

Bo'lim boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

1. Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;
2. Xodimlarni boshqa lavozimlarga ko'rsatish, o'tkazish va rag'batlantirish, zarur hollarda jazolash chorasini qo'llash to'g'risida Boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;
3. Bo'lim ishini tashkil etishni, usuli va uslubini yaxshilash, hisobot, ijro va mehnat intizomini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Boshqarma boshlig'i .

A.O'tamuratov

Bo'lim boshlig'i v.b.

Sh.Davlatov

Bosh yuriskonsult



I.Otajonov